



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



# KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

O'z.KTI

№2 - 2026 (7) ISSN: 3060-5024



# KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

№2 / 2026 (7)

ISSN: 3060-5024

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Tahrir hay'ati raisi

**Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich**  
Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Tahrir hay'ati a'zolari

**Niyazmetov Ikrom Masharipovich**  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi, tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

**Azim Shuhrat Obid o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Nigmatov Ruftullo Olimjonovich**  
falsafa doktori, professor

**Sharafutdinov Alisher Ozodovich**  
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, dotsent

**Ismailov Isamiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Turg'unov Murod Tursunbayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Niyozova Salomat Saparovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Zakirova Adina Gulyamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Otajonov Abrorjon Anvarovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Ganiyev Sherzod Alisherovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Toshpulatov Akrom Ikromovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Maxsodov Maqsatullo Ismatovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Nurullayev Umid Kupalovich**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Ollamov Yarash Yo'ldoshevich**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Nurumbetova Sadoqat Allayarovna**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Mirzayev Jahongir Umirzakovich**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Matchanov Ruslanbek Azatovich**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Yernazarov Solijon Yerkinovich**  
iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yarov Bekmamat Alikulovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bosh muharrir

## MUNDARIJA

### KRIMINOLOGIK TAHLIL VA NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUV

<b>Berdialiyev B.E.</b> Ijtimoiy profilaktika samaradorligini baholashning kriminologik mezonlari	3
<b>Якубов А.С., Азим Ш.О.</b> Первый уголовный кодекс независимого Узбекистана: тридцать лет функционирования (I часть)	8
<b>Adilkariyev X.T., Umirzakov B.A.</b> Kriminologik prognozlashning mahalladagi jinoyatlarni barvaqt oldini olish mexanizmidagi o'rni	15
<b>Berdialiyev B.E., Ollamov Ya.Y.</b> Ichki ishlar organlari va ular xodimlarining imijini oshirish: nazariy-metodologik yondashuvlar	20
<b>Murodov B.B., Abdullaev A.Y.</b> So'roq qilishdagi protsessual bo'shliqlarning jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga ta'siri: muammo va yechimlar	29
<b>Bobomurodov F.B.</b> Kiberjinoyatchilikning oldini olishda tezkor-qidiruv tadbirlarini huquqiy tartibga solish: kriminologik tahlil	36
<b>Payziyev D.Yu., Rasulev A.A.</b> Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda tayyorlash, ishlab chiqarish va qayta ishlash tushunchalarining o'zaro munosabati	44
<b>To'rayev I.E.</b> Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati	49
<b>Mirzayev J.U., Abduxamidov G.Z.</b> Ichki ishlar organlarida strategik rejalashtirishning ahamiyati	55
<b>Исаев С.А.</b> Криминалистическая характеристика личности преступника совершающего преступления, связанные с незаконным оборотом огнестрельного оружия	60
<b>Nazarova L.G.</b> Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi: holati, tendentsiyalari va profilaktik ahamiyati	67
<b>Boliyev U.U.</b> Mahallalarda jamoat tartibini ta'minlashning huquqiy asoslari: tizimli-kriminologik tahlil	71
<b>XORIJY TAJRIBA</b>	
<b>Nigmatov R.O.</b> Buyuk Britaniya mahalliy tuzilmalarining jinoyatlarni oldini olish tizimidagi o'rni va O'zbekiston amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari	76

Tahririyat manzili:  
100187, Toshkent shahri  
Mirzo Ulug'bek tumani  
Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243  
Tel.: +998 (71) 231-39-77  
Elektron pochta: kti@iiv.uz  
Website: kti.iiv.uz

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti  
Jurnal 2024-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro'yxatga olingan.  
O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 12-fevraldagi 367/5-son qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSO) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jumallar ro'yxatiga kiritilgan.



**IJTIMOY PROFILAKTIKA SAMARADORLIGINI  
BAHOLASHNING KRIMINOLOGIK MEZONLARI**



**BERDIALIYEV  
Baxtiyor Erkinovich**

*O'zbekiston Respublikasi  
Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Maqolada jinoyatchilikning oldini olish tizimida ijtimoiy profilaktika samaradorligini kriminologik baholashning nazariy-huquqiy va metodologik muammolari tahlil qilingan. Muallif tomonidan an'anaviy statistik baholash tizimining kamchiliklari ochib berilib, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish va kriminologik xavfsizlikni ta'minlash darajasini aniqlashning yangi ilmiy mezonlari (kriteriyalari) taklif etilgan. **Kalit so'zlar:** ijtimoiy profilaktika, kriminogen vaziyat, samaradorlik mezonlari, kriminologik xavfsizlik, determinatsiya, viktimologik indikatorlar, deviant xulq-atvor.

**Аннотация.** В статье анализируются теоретико-правовые и методологические проблемы криминологической оценки эффективности социальной профилактики в системе предупреждения преступности. Автор раскрывает недостатки традиционной статистической системы оценки и предлагает новые научные критерии для определения уровня стабилизации криминогенной ситуации и обеспечения криминологической безопасности. **Ключевые слова:** социальная профилактика, криминогенная ситуация, критерии эффективности, криминологическая безопасность, детерминация, виктимологические индикаторы, девиантное поведение.

**Abstract.** The article analyzes the theoretical, legal, and methodological problems of criminological evaluation of social prevention effectiveness within the crime prevention system. The author exposes the shortcomings of the traditional statistical evaluation system and proposes novel scientific criteria for determining the level of stabilization of the criminogenic situation and ensuring criminological security. **Keywords:** social prevention, criminogenic situation, effectiveness criteria, criminological security, determination, victimological indicators, deviant behavior.

Zamonaviy kriminologiya ilmi oldida turgan eng murakkab fundamental muam-molardan biri – jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning real natijadorligini xolis, tizimli va ilmiy asoslangan tarzda baholash metodologiyasini yaratish hisoblanadi. Uzoq yillar davomida ijtimoiy profilaktika subyektlari faoliyati sof miqdoriy va idoraviy ko'rsatkichlar, ya'ni qayd etilgan jinoyatlar sonining mexanik tarzda kamayishi yoki ko'payishi hamda o'tkazilgan targ'ibot tadbirlarining soni asosida baholab kelindi. Biroq, jinoyatchilikning yashirlik darajasi yuqori bo'lgan, globallashtirish va raqamlashtirish

shiddatli tus olgan zamonaviy sharoitda, bunday sof statistik va an'anaviy yondashuv kriminogen voqealikning real manzarasini aks ettira olmaydi. Mazkur muammo nafaqat milliy kriminologiya doktrinasida, balki Birlashgan Millatlar Tashkilotining jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishga qaratilgan global strategik hujjatlarida ham o'z ak-sini topgan. Xususan, BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyi odil sudlov bo'yicha X Kongres-sida qabul qilingan Vena deklaratsiyasi [1] hamda XII Kongress tomonidan e'lon qilingan Salvador deklaratsiyasi [2] kabi xalqaro standartlarda preventiv faoliyat samaradorligini baholashda

**MUNDARIJA**

**Saidov B.Yo.**  
Kiberjinoatlar bo'yicha xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasida kiberog'riqlik jinoyatlari kvalifikatsiyasi ..... 86

**Maxsodov M.I.**  
Koreya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-huquqbuzarliklar to'g'risidagi qonunchiligini qiyosiy-huquqiy tahlili: milliy ma'muriy qonunchilikni modernizatsiya qilish yo'llari ..... 91

**Aripov A.X.**  
O'zbekistonda yoshlar huquqbuzarliklari profilaktikasi: milliy qonunchilik tahlili, statistik tendensiyalar va ilg'or xorijiy tajriba ..... 99

**XALQARO HAMKORLIK**

**Kaxarova M., R. Kalesnikas**  
Female criminality: socio-psychological deformation and victimological determinants ..... 104

**Gábor Kovács, Alokhonov M.A.**  
Issues of improving the quality of national criminological research on the basis of modern scientific standards ..... 110

**Tazetdinov P.P., Agaфонов M.B.**  
Международно-правовые и национальные подходы к противодействию киберпреступности ..... 122

**TADQIQOTCHI MINBARI**

**Turayev A.P.**  
Jinoatlarning sabab va sharoitlarini aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning kriminologik asoslari ..... 127

**Kutbitdinov G'X.**  
O'zbekiston respublikasida prekursoralusidan davlat nazorati: muammolar va yechimlar ..... 124

**Murzajanov Sh.G.**  
Murojaatlar bilan ishlash orqali huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish: huquqiy mexanizmlar va samaradorlik ..... 134

**Davranov X.B.**  
Korrupsiyaviy jinoyat sodir etgan ichki ishlar organlari xodimi shaxsining kriminologik tavsifi ..... 143

**Rixsimov K.A.**  
O'zbekistonda raqamli kriminologiyani rivojlantirish: "Criminology AI" texnologiyasi misolida milliy model ..... 148

**Isayev E.E.**  
Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasining institutsional-huquqiy mexanizmini takomillashtirish strategiyalari ..... 152

**Maxmudov J.X.**  
Jamoat tartibini muhofaza qilishda milliy gvardiya kabi tuzilmalarning o'ziga xos jihatlari: xorijiy tajriba ..... 160

**Muhamadov U.U.**  
Huquqni muhofaza qilish faoliyatida maxsus xizmat vazifalarini bajarish layoqatini huquqiy ta'minlash: xorijiy strategiyalar va innovatsion yondashuvlar ..... 166

**Aynidinov S.I.**  
Narkojinoatlarga qarshi kurashda xorijiy davlatlar tajribasi ..... 173



## O'ZBEKISTONDA RAQAMLI KRIMINOLOGIYANI RIVOJLANTIRISH: "CRIMINOLOGY AI" TEXNOLOGIYASI MISOLIDA MILLIY MODEL



**RIXSIMOV**  
**Komron Abrorovich**  
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti  
ilmiy xodim tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari faoliyatida raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt (SI) qo'llash orqali jinoyatchilikning oldini olishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan jinoyatlarni bashorat va tahlil qilishga mo'ljallangan "Criminology AI" tizimining milliy modeli konsepsiyasi ishlab chiqilgan hamda uni amaliyotga joriy etishning huquqiy, texnik va etik jihatlarini asoslab berilgan.

**Kalif so'zlar:** raqamli kriminologiya, sun'iy intellekt, Criminology AI, jinoyatchilik profilaktikasi, kriminologik prognoz, kiberjinoyatchilik, raqamli xavf, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, milliy model.

**Аннотация.** В данной статье анализируются современные механизмы предупреждения преступности посредством применения цифровых технологий, в частности искусственного интеллекта (ИИ), в деятельности правоохранительных органов Республики Узбекистан. Автором разработана концепция национальной модели системы «Criminology AI», предназначенной для прогнозирования и анализа преступлений, а также обоснованы правовые, технические и этические аспекты её внедрения в практику.

**Ключевые слова:** цифровая криминология, искусственный интеллект, Criminology AI, профилактика преступности, криминологический прогноз, киберпреступность, цифровой риск, правоохранительные органы, национальная модель.

**Abstract.** This article analyzes modern mechanisms for crime prevention through the application of digital technologies, particularly artificial intelligence (AI), in the activities of law enforcement agencies of the Republic of Uzbekistan. The author has developed the concept of a national model for the "Criminology AI" system, designed for crime forecasting and analysis, and has substantiated the legal, technical, and ethical aspects of its practical implementation.

**Keywords:** digital criminology, artificial intelligence, Criminology AI, crime prevention, criminological forecasting, cybercrime, digital risk, law enforcement agencies, national model.

Bugungi globalashuv va axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi, boshqa hodisalar kabi, jinoyatchilikning ham transformatsiyalashuviga olib kelmoqda. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan unga qarshi kurashishda an'anaviy usullaridan voz kechib, innovatsion va proaktiv yondashuvlarga o'tishni taqozo etmoqda. Ana shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, raqamli xizmatlar va sun'iy intellekt sohasini

rivojlantirish bo'yicha institutsional asoslar shakllanmoqda.

Jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida sun'iy intellekt, robototexnika va boshqa raqamli texnologiyalarni ta'lim, boshqaruv va iqtisodiyot sohaslariga joriy etish vazifalari belgilangan [1]. 2024-yil 14-oktyabrda qabul qilingan Prezident qarori bilan Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan bo'lib, unda AI asosidagi

dasturiy mahsulotlar ulushini oshirish, texnik infratuzilmani kengaytirish va kadrlar salohiyatini kuchaytirish vazifalari belgilangan [2].

Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash esa O'zbekistonda raqamli kriminologiyani mustaqil ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida rivojlantirish zaruratini kun tartibiga qo'yimoqda. Chunki jinoyatchilikni faqat sodir etilganidan keyin fosh etish emas, balki uning kelib chiqish omillarini oldindan aniqlash, xavfli hududlar va guruhlarni belgilash, profilaktik resurslarni maqsadli taqsimlash ham zarur. Bu vazifani "Criminology AI" deb nomlanuvchi milliy sun'iy intellekt platformasi orqali amalga oshirish mumkin.

Raqamli kriminologiya – raqamli muhitda, raqamli vositalar yordamida yoki ular orqali sodir etilgan huquqbuzarliklarni nazariy hamda empirik jihatdan tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi fan. U an'anaviy kriminologiyaning metod va prinsiplarini raqamli makonga moslashtiradi, yangi turdagi jinoyatchilikni yorituvchi g'oyalarni va tushunchalarni taqdim etadi.

Raqamli kriminologiyaning markazida jinoyatchi faoliyatining raqamli instrumentlari, qurbonlar va jamiyatga ta'siri mexanizmlari yotadi [3].

Fikrimizcha, Raqamli kriminologiya – jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini o'rganish, jinoyatchi shaxsini tahlil qilish va jinoyatning oldini olish choralarni ishlab chiqishda raqamli izlar, algoritmlar va katta ma'lumotlardan (Big Data) foydalanuvchi fan tarmog'i.

Jahon tajribasida (AQSHdagi *PredPol*, Buyuk Britaniyadagi *HART* tizimlari) sun'iy intellekt asosida ishlaydigan dasturlar jinoyat o'choqlarini oldindan aniqlashda yaxshi samara berayotganligi isbotlagan.

Ushbu tizimlar asosida ehtimollikni hisoblashning matematik modellari yotadi. Jinoyat sodir etilish ehtimolini baholashda, ko'pincha mashinaviy o'rganish algoritmlari va Bayes teoremasiga asoslangan quyidagi matematik modeldan foydalaniladi:

$$P(C|X) = \frac{P(X|C)P(C)}{P(X)}$$

Bu yerda:  
P(C|X) – ma'lum bir ijtimoiy-maishiy omillar (X) mavjud bo'lganda jinoyat (C) sodir etilish ehtimoli;  
P(C) – muayyan hududda jinoyat sodir etilishining umumiy ehtimoli;  
P(X|C) – jinoyat sodir etilgan holatlarda ushbu omillarning (X) kuzatilish ehtimoli;  
P(X) – tahlil qilinayotgan omillarning umumiy uchrash ehtimoli.

Bayes teoremasi (yoki Bayes formulasi), ehtimollar nazariyasining asosiy teoremlaridan biri bo'lib, *biror voqea sodir bo'lganligi ma'lum bo'lganda, u bilan bog'liq boshqa bir voqeaning sodir bo'lish ehtimolini (shartli ehtimolni) hisoblash* imkonini beradi. Bu teorema yangi ma'lumotlar yoki dalillar paydo bo'lishi bilan mavjud taxminlar va ishonch ehtimolini yangilash (aniqlashtirish) uchun xizmat qiladi [4].

An'anaviy kriminologiya ko'proq jinoyatchilikning sabablari, shaxs, muhit va profilaktika choralarni nazariy-empirik asosda tahlil qilsa, raqamli kriminologiya ushbu tahlilni real vaqt rejimidagi ma'lumotlar, avtomatik monitoring va ehtimoliy xavf modellari bilan boyitadi.

Oddiy qilib aytganda, klassik kriminologiya "nima uchun jinoyat sodir etildi?" degan savolga javob izlasa, raqamli kriminologiya "qayerda, qachon, qanday sharoitda va kimga nisbatan jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori?" degan savolga ham javob beradi.

Bunday yondashuvning amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

*birinchidan*, jinoyatchilik dinamikasini hududlar, vaqt, shaxslar toifasi va jinoyat turlari kesimida aniq tahlil qilish imkonini beradi;

*ikkinchidan*, profilaktika inspektorlari, tergov organlari, prokuratura va sudlar uchun ma'lumotga asoslangan qaror qabul qilish muhitini yaratadi;

*uchinchidan*, latent jinoyatchilik, ya'ni ro'yxatga olinmagan yoki yashirin qolgan jinoyatlarni aniqlashda yordam beradi;

*to'rtinchidan*, kiberjinoyatchilik va sun'iy intellekt yordamida sodir etiladigan jinoyatlarni aniqlashda an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroqdir.

"Criminology AI" – bu jinoyatchilikka oid ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, tahlil qilish, xavflarni baholash, prognozlash va profilaktik tavsiyalar

ishlab chiqishga mo'ljallangan milliy sun'iy intellekt platformasi. Ushbu texnologiyaning asosiy vazifasi jinoyatchilikka qarshi kurashni reaktiv modeldan profilaktik-prognozli modelga o'tkazishdan iborat, ya'ni huquqni muhofaza organlar jinoyat sodir etilgandan keyin harakat qilish bilan cheklanmay, kriminogen xavflarni oldindan ko'radi va ularga nisbatan tezkor, huquqiy va maqsadli choralar belgilaydi.

"Criminology AI" quyidagi ma'lumot manbalari bilan ishlashi mumkin:

- ichki ishlar organlarining jinoyatlar va huquqbuzarliklar bo'yicha statistik ma'lumotlari;
- prokuratura va sud organlarining jinoyat ishlari, ayblov, hukm va reabilitatsiyaga oid ma'lumotlari;
- mahalla, ta'lim, bandlik, migratsiya va ijtimoiy himoya tizimlaridagi umumlashtirilgan ma'lumotlar;
- kiberjinoyatchilikka oid IP-manzillar, domenlar, fishing saytlar, zararli dasturlar va kriptovalyuta tranzaksiyalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar;
- viktimologik ma'lumotlar – jabrlanuvchilar profili, takroriy jabrlanish holatlari, ijtimoiy zaif guruhlar;
- gyeoaxborot ma'lumotlari – jinoyatlar qaysi hudud, vaqt va sharoitda ko'proq sodir etilayotganini ko'rsatuvchi xaritalar.

Bu yerda muhim masala shundan iboratki, "Criminology AI" shaxslarni avtomatik aybdor deb topuvchi yoki jazo tayinlovchi tizim bo'lmisligi kerak, u faqat yordamchi vosita bo'lishi lozim. Qarorni inson – tergovchi, prokuror, sudya yoki vakolatli mansabdor shaxs qabul qiladi.

Ekspertiz Frans tomonidan chop etilgan "Artificial Intelligence and Organised Crime" da ham AI tizimlari inson qarorini almashtirmasligi, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yo'naltiruvchi, yordamchi vosita bo'lishi kerakligi ta'kidlangan [5].

O'zbekistonda jinoyatchilik profilaktikasi sohasida "mahallabay" ishlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, yoshlar, xotin-qizlar, migrantlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar bilan individual ishlash tizimi mavjud. Bu tizimni sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va kriminologik prognozlash bilan bog'lash uning samaradorligini keskin oshirishi mumkin.

Milliy model quyidagi sabablarga ko'ra zarur:  
*birinchidan*, jinoyatchilikning hududiy tabiati turlicha. Toshkent shahrida kiberfribgarlik, onlayn

savdo bilan bog'liq jinoyatlar ko'proq uchrasa, ayrim hududlarda maishiy zo'rvonlik, ishsizlik, migratsiya yoki mol-mulk nizolari bilan bog'liq huquqbuzarliklar ustuvor bo'lishi mumkin;

*ikkinchidan*, profilaktika resurslari cheklangan. Shuning uchun kuch va vositalarni umumiy emas, xavf darajasi yuqori bo'lgan hudud va guruhlariga yo'naltirish zarur;

*uchinchidan*, raqamli jinoyatchilik tezkor, transchegaraviy va yashirin xususiyatga ega. Bunday jinoyatlarni qo'lda tahlil qilish ortiqcha vaqt talab etadi.


O'zbekistonda raqamli kriminologiyani rivojlantirish bugungi jinoyatchilik tendensiyalari, sun'iy intellekt texnologiyalarining tez taraqqiy etishi va huquqni muhofaza qilish tizimida ma'lumotga asoslangan boshqaruvga o'tish zarurati bilan bevosita bog'liq.

"Criminology AI" texnologiyasi milliy model sifatida jinoyatchilikni tahlil qilish, prognozlash, profilaktika qilish va kriminogen xavflarni erta aniqlashda muhim vosita bo'lishi mumkin.

Biroq ushbu texnologiyani joriy etishda texnik samaradorlik bilan huquqiy kafolatlar o'rtasida muvozanat saqlanishi shart. Sun'iy intellekt huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun yordamchi tahliliy vosita bo'lishi, insonning huquq va erkinliklarini cheklovchi mustaqil qaror qabul qiluvchi mexanizmga aylanmasligi kerak.

Shu sababli, O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l sun'iy intellekt, kriminologiya, huquqiy nazorat, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va inson huquqlarini uyg'unlashtirgan milliy raqamli kriminologiya modelini bosqichma-bosqich shakllantirishdir.

Ana shunda "Criminology AI" nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurash vositasi, balki huquqiy davlat, raqamli xavfsizlik va ilmiy asoslangan profilaktikaning yangi institutiga aylanadi.



## Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori.
3. Matqobilov N.Sh. Academic research in modern science international scientific-online conference // Konfrensiya to'plami. – 16–19-b.
4. Теорема Байеса. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
5. Экспертиз Франс. "Artificial Intelligence and Organised Crime". – 2024 й. – 8-б

